

ASKIYA – TAFAKKUR MAHSULI

O. Qulmamatov ¹*Annotatsiya:*

Ushbu tezisdagi o'zbek xalqining so'z san'ati askiya folklor janri, shuningdek, bugungi kunda yurtimizda o'zbek tilining davlat tili sifatida yuksalayotganligi haqida so'z yuritilgan. Qolaversa, askiyaning tarbiyaviy ahamiyati va askiyachilarning zukkoliklari haqida ham qisqacha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: askiya, zukkolik, imo-ishora, kulgu, askiyachi.

doi: <https://doi.org/10.2024/znewy133>

O'zbek tilining nufuzini yanada oshirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrda qabul qilgan PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"²gi Farmonida belgilanganidek, bugun O'zbekistonimiz "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko'tarilmoqda. O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etish dolzarb vazifa sanaladi.

XXI asr tilshunosligi til faqat muloqot va bilim vositasi emas, balki millatning madaniy kodi sifatida qaraladigan yo'nalishni faol rivojlantirmoqda. Bu yondashuvning fundamental asoslari V.Gumboldt, A.A.Potebnya va boshqa olimlarning asarlarida keltirib o'tilgan. Masalan, nemis tilshunosi V.Gumboldt quyidagicha ta'kidlagan: "Mening millatim tilining chegarasi mening dunyoqarashimning chegarasini bildiradi"³.

So'z – yaratganning insoniyatga bergan buyuk ne'mati. Yillar, asrlar o'tsa ham o'z qadr-qimmatini va ahamiyatini yo'qotmagan nutq birligi. Ijtimoiy tarixning ibtidodan tortib to shu kunga qadar insoniyat ko'rgan, bilgan va boshidan kechirganlarini anglagan, ifodalab anglatgan va avlodlarga yetib borishini ta'minlagan muomala vositasining manbai. So'z keng jahon hamjamiyatining intellektual mulki – bebaho madaniy va ma'naviy merosini shakllantirgan bosh manba va asosdir. Jahon madaniyatining durdonalari bo'lgan badiiy adabiyotga oid asarlar, xalqlarga oid tarixiy afsona, rivoyat, ertak va qissalar, millat va ellatlarning o'ziga xos mintalitetini, ijtimoiy xarakterini, asosiy va individual belgilarini aks

¹ Qulmamatov Oybek Amonovich, O'zDJTU 3-bosqich tayanch doktoranti

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

³ Qulmamatov O. Til va madaniyat: lingvomadaniyatshunoslik ilmiy bilimlarning murakkab sohasi sifatida // O'zbekiston Milliy Universiteti xabarлари, 2022, [1/11/1] issn 2181-7324 filologiya. <https://science.nuu.uz/>

ettiruvchi folklori, ya'ni xalq og'zaki ijodi ham so'z vositasida shakllangan va yuzaga kelgan.

Askiya – “zukkolik san'ati”, ikki yoki undan ortiq kishi yoki guruhning ommaviy yig'ilishlarda ma'lum bir mavzudagi og'zaki bahsi. Tomonlar gohida aylanada, goh yuzma-yuz o'tirib, turib yoki yurib tez javob berishga harakat qiladilar, javoblarini ixcham, notiq, zukko, ta'sirli, jozibali va kulgili qilib ko'rsatadilar. Javob topishda mavzu, janr doirasidan chetga chiqqan yoki so'z tanlashda xatoga yo'l qo'yan tomon yutqazgan hisoblanadi. Tomoshabinlar o'zlarining kulgulari va ehtirosli hayqiriqlari bilan tomonlarni va ularning javoblarini baholaydilar. Ma'noli, sensatsion askiyani eshitib odamlar xursand bo'lishadi, sayoz va qo'pol askiyalardan qattiq nafratlanadilar. Mazmunli, yoqimli va kulgili askiyani ijro etishda tomonlardan o'tkir zehni, e'tiborli bo'lishlari, shuningdek, mavzuga oid ma'noli so'zlarni topa olishlari, yuz ifodalari, tana harakatlari, tovushlar va mos ravishda imo-ishoralarni ishlata bilishlari talab qilinadi. Askiya turlarini mukammal o'zlashtirgan va katta davralarda bellasha oladigan odamlar askiyachi, askiyaboz (zukkolik san'ati ijrochisi) deb ataladi¹.

«Askiya» arabcha so'z bo'lib, «O'zbek tilining izohli lug'ati»da belgilanganidek, «ziyrak, aqlli, zehni» ma'nolarini ifodalovchi zakiy so'zining ko'plik shakli azkiyo hisoblanadi. Azkiyo so'zi davrlar o'tishi bilan fonetik jihatdan o'zgarib, askiya ko'rinishiga kelgan. O'z asl ma'nosini (ziyraklar, zakiyalar) mumtoz adabiyotimizda saqlagan holda, hozirgi o'zbek tilida milliy og'zaki ijod janri nomi sifatida qo'llanmoqda: «Askiya – o'zbek xalq og'zaki ijodining bir janri bo'lib, unda so'z o'yiniga, qochiriqlarga asoslangan holda ikki yoki undan ortiq kishi yoki taraflar musobaqalashadi. Askiya, odatda, to'y-tomosha, sayl, ziyofat kabi yig'inlarda o'tkaziladi»².

Askiya san'ati xalqimiz tarixining har bir davrida jonli tilimizni keng qamrovi ommalashtirishga ulkan hissa qo'shgan jonli so'z san'atidir. Mazkur san'at faoliyatida jamiyatning jam bo'lishi, ya'ni xalq to'plangan yig'inlar, sayillar, bog'-rog'lardagi tantanalar, to'y-tomosha, mehmondorchilik kabi umumxalq tadbirlari muhitining mavjudligi zarur. Askiya jarayonida ikki kishi yoki bir necha kishi keng davrada ma'lum bir mavzu ustida tarafma-taraf bo'lib bahslashadi. Sof fikrlar kurashidan iborat bo'lgan bu bellashuv aytishuvida badiiy vositalar – so'z o'yinlari, iboralar, qochiriq, kinoya, o'xshatish, mubolag'a, payrov kabilar mohirlik bilan qo'llaniladi. Askiyachi yoki askiyachilar qarshi tomondagilar bilan aytishuv yoki bahsda so'z ustasi sifatida ustun chiqishga urinadilar. Qattiq, lekin beg'araz kulgilar bilan to'lib-toshgan bahslashuv bir tarafning g'alabasi bilan yakunlanadi.

Ustoz san'atkor Muhammadsiddiq Sherayev ta'kidlashicha, askiya faqat kulgudan iborat emas, balki shu san'at turi orqali yoshlar ma'naviy dunyoqarashiga, ularning ahloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishdir.

Askiyada odamlar fe'l-atvoridagi nuqsonlar fosh qilinishi mumkin, biroq bundan hech kim ozor chekmaydi. Aksincha, kishi o'z ayb-nuqsoni va bo'sh tomonlarini bilib olib, ularni isloh qilishga kirishadi. Shu ma'noda, biroz ko'ngilni

¹ Kulmamatov Oybek Amonovich. Askiya – A Masterpiece of Uzbek Folk Art // EJEDL ISSN: 2776-0995 Volume 4, Issue 2, Feb., 2023

² Кулмамаатов О.А. Аскияда кулги уйғотувчи воситалар // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал. -№3/4 (99), 2023 й., 186-б.

xushlamoq, shodlik va xursandchilik uchun aytilgan askiya ma'lum ma'noda tarbiyaviy ahamiyatga ega. Xalqning "Bir marta dildan kulgan kishining umri bir kunga uzayadi", deyishi ham bejiz emas. Kulgi, askiyaning kishi salomatligiga nechog'li foyda keltirishi hammamizga ma'lum.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash zarurki, xalqimizning ma'naviy boyligi sifatida askiya hozirgi farovon kunlarimizgacha saqlanib keldi. Mazkur janr endilikda so'z san'ati, satira va yumorning serzavq turi, demokratik tanqid quroli, xalqimiz uchun badiiy-estetik tarbiya vositasi sifatida yangi mazmun va shakllarda yuksalmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

[2]. Qulmamatov O. Til va madaniyat: lingvomadaniyatshunoslik ilmiy bilimlarning murakkab sohasi sifatida // O'zbekiston milliy universiteti xabarleri, 2022, [1/11/1] ISSN 2181-7324 Filologiya. <https://science.nuu.uz/>

[3]. Kulmamatov Oybek Amonovich. Askia – a masterpiece of Uzbek folk art // EJEDL ISSN: 2776-0995 Volume 4, Issue 2, Feb., 2023